

YOSHLAR EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYASIDA OTA-ONANING O'RNI

Bakirov Feruz Sayfulla o'gli

Shahrisabz Davlat pedagogika instituti doktoranti

feruzbakirov@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada yoshlarda ekologik ta'lim-tarbiyani shakllantirishda ota-onaning o'rni ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan. Hozirgi kunda oilada ta'lim – tarbiyaning yangi zamonaviy texnologiyalarini qo'llash orqali yoshlarda ekologik bilim va ko'nikmalarni shakllantirish muhimligi haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *ekologiya, ekologik madaniyat, ekologik tarbiya, aspekt, mantiqiylik, globallashuv, analiz, sintez, biosfera, tendensiya.*

Аннотация. *В статье научно-теоретически обоснована роль семьи в формировании экологического воспитания у молодежи. В настоящее время задумывается о важности формирования экологических знаний и умений у молодежи за счет использования новых современных технологий воспитания в семье.*

Ключевые слова: *экология, Экологическая культура, экологическое воспитание, аспект, логика, глобализация, анализ, синтез, биосфера, тенденции.*

Annotation. *The article scientifically and theoretically substantiates the role of the family in the formation of environmental education among young people. Currently, they are thinking about the importance of the formation of environmental knowledge and skills among young people through the use of new modern technologies of education in the family.*

Key words: *ecology, Ecological culture, ecological education, aspect, logic, globalization, analysis, synthesis, biosphere, trends.*

Atrof-muhitni asrash masalasi har bir davrda o'ziga xos jarayonlarda shakllandi. Qadimgi va o'rta asrlarda yer yuzining barcha hududlarida tabiatdan foydalanishning an'naviy shakli hukmronlik qildi. Texnika va texnologiyalar ko'proq yer yuzasidagi tabiiy mahsulotlarni qayta ishlashga moslashtirilgan bo'lib, kimyoviy mahsulotlar iste'moliga talab yuqori emas edi. Aholi iste'moliga tabiatning ekologik toza mahsulotlari yetarli va texnologiyalarni qayta ishlash quvvati pastroq darajada bo'lgan. Davlatlarning xom ashyoga ehtiyoji kapitalizmning boshlanishi bilan jadallasha bordi. Bu davrda texnika va texnologiyalar inqilobi yuzaga keldi. Aholining soni keskin ko'paydi. Tabiiy resurslarga bo'lgan talab sezilarli o'sdi. Dalatlarning tabiat resurslaridan foydalanish imkoniyatlari kengaydi. Davlatlar o'rtasidagi raqobat ham ancha ortdi. Ekologiyaga zarar yetkazish global darajaga yetdi. XX asrning oxirlariga kelib jahonda ekologik muammolarni oldini olish umuminsoniyat vazifasiga aylandi. Bu esa, yoshlar ekologik madaniyatini shakllantirish uchun ta'lim-tarbiya jarayonlarini takomillashtirishni kun tartibiga qo'ydi.

Bu esa, inson ekologik madaniyatini oshrishda ta'lim-tarbiyaning zamonaviy mexanizmlariga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. Bugungi ekologik ta'lim-tarbiya avvalo

oilada farzand tarbiyasida ekologik dunyoqarash shakllantirilib, ta'lim muassasalari orqali ta'limga yo'naltiriladi. Oilada ekologik ta'lim ham tarbiya orqali singdirilishi mumkin, ammo bu barcha oilalarda mujassamlashmagan. Ammo, ekologik tarbiya barcha oilalarda mavjud va azaldan shakllangan. Masalan, qo'lni yuvib yurish, tirnoqni, soch va soqolni o'stirmaslik, kechasi tirnoq olmaslik, ozodalik, tartib-intizom, pokizalik, orastalik, saranjomlik, tuproqni, suvni, tabiatni ifloslantirmaslik, kasallik tarqagan joylarga bormaslik, mayid chiqarilgan uyda uch kungacha taom tayyorlamaslik kabi tarbiya tizimi yoshlikdan farzandlarga singdirilib kelinadi. Farzand ham ekologik ug'itlarni eshitib, ko'rib ulg'ayadi va ularda ekologik dunyoqarash shakllanib boradi. Tarbiyaning bu shakli o'zbek xonadonlarining barchasida uchraydi. Lekin barcha oilalar ham tarbiyaning asl mohiyatini to'laligicha tushunolmaydi. Ular faqat ajdodlardan o'tib kelayotgan o'g'itlar orqali amaliy faoliyatga kirishib kelgan. Agar oila tarbiyachilari tarbiyadagi o'g'itlarning barchasini to'liq anglab yetganlarida u ekologik bilimga aylanar edi. Uning uchun oila tarbiyachilarida ekologik bilimlar yetarli bo'lishi muhim hisoblanadi. Ekologik bilimlardan habardorlik oilalarning barchasini qamrab ololmaganligi ayni haqiqat. Shuning uchun oilalarni ko'pchiligi farzandlar ekologik tarbiyasida milliy qadriyatlarga tayangan holda ekologik tafakkurni shakllantirishga yo'naltilgan. Bugungi kun ta'lim-tarbiyasi Oilalarda amalga oshirilayotgan ekologik tarbiya orqali cheklanish yetarli natijani bermasligini ko'rsatmoqda. Ekologik globallashuvning jadallashuvi har bir xonadon vakillarini ekologik bilimlar bilan qurollantirish zaruriyatini ko'rsatdi.

Ota ona farzandga faqat ekologik tarbiyani emas, unga hamohang tarzda biosekologik bilimni singdirishi zarur. Chunki, bolaning ongi-shuurida ekologiyaga bo'lgan munosabat o'ziga bo'lgan munosabatni namoyon etishi kerak. Shunda farzand tabiatni va o'zini mujassamlilikda his qila boshlaydi. Atrof-muhitga bo'lgan munosabati o'zgaradi. U tabiatdan bahra olishni o'rganadi. Bola asosiy informatsiyalarni 5 yoshgacha bo'lgan davrda o'ziga abadiy singdirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bolaning 5 yoshgacha bo'lgan davri ko'proq ko'rish va eshitganlariga amal qiladigan oraliq davri hisoblanadi. Bolaning ongi asosan 5 – 7 yoshdan shakllanishini inobatga oladigan bo'lsak, aynan ana shu davrda uning qalbida, oiladagi muhit ta'sirida [2, 53] ekologik dunyoqarashning kurtaklari namoyon bo'la boshlaydi. Halqimizning “Qush uyasida ko'rganini qiladi”, degan dono maqoli, o'ylaymanki, mana shu azaliy haqiqatni aks ettiradi [2, 53].

Zamonaviy ekologik tarbiya jarayonlari bugungi kun nuqtai nazaridan kelib chiqib tashkil etilishi umuminsoniyat ekologik madaniyatiga aylandi. Endilikda ota-onaning o'zi ekologik maxsus bilimlar bilan yo'g'riltirilishi kun tartibiga ko'tarildi. Oilada tarbiyalanuvchiga ota-onaga milliy ekologik qadriyatlarimiz bo'lgan: qo'lni yuvib yurish, tirnoqni, soch va soqolni o'stirmaslik, kechasi tirnoq olmaslik, ozodalik, tartib-intizom, pokizalik, orastalik, saranjomlik, tuproqni, suvni, tabiatni ifloslantirmaslik, kasallik tarqagan joylarga bormaslik, mayid chiqarilgan uyda uch kungacha taom tayyorlamaslik kabi tarbiya nazariyalari asl mohiyatini ham ilmiy, ham amaliy jihatdan aniq tushuntirishi samarali bo'lishini tadqiqotchilar isbotlagan [3, 6]. Chunki, tarbiyalanuvchi o'rganayotgan mavzuning ilmiy asosini tushunib o'rgansa, unga amal qilsa tarbiya va ta'lim paralel yo'naltiriladi. Tarbiyalanuvchi bir vaqtning o'zida ham tarbiya, ham ilm oladi. Tabiatga yetkazayotgan zarari

nima hodisalarga olib borishini anglab yetadi. Shu sababli, ta'lim va tarbiya berilishi jarayonida ota-onaning o'zi ham ekologik bilimlarni yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi zarur bo'ladi. Ota-onaning ekologik bilimlarni yaxshi o'zlashtirishi kelajak avlodga toza barqaror ekologik muhitni yaratib berishini anglatadi. Ekologiyani asrashga doir diniy bilimlardan xabardorlik ham ota-onaning zimmasiga yuklanadi. Ta'lim-tarbiyaga bunday yondashuv uch tomonlamalikni tashkil etadi: birinchidan, farzandlar ota-onadan tarbiyaviy o'g'itlarni o'rganadi; ikkinchidan, ekologiyaga doir ilmlarni asl mohiyatini, uning oqibatlarini anglaydi; uchinchidan, diniy qarashlar asosida tarbiyalanuvchilar gunoh va savob tushunchasini mukammal o'rganadi. Ekologik madaniyat ham shunga qarab shakllanib boradi. Avvaliga ota-onaning nasihati, ekologik bilimlarni singdirilishi, diniy asoslarni yo'g'rilganligi oiladagi ta'lim-tarbiyani tizimlashtiradi. Diniy ta'lim o'nib kelayotgan yoshning ongiga tez ta'sir qiladi. Bolada ijobiy o'zgarishlar sodir bo'ladi, o'zgaga zarar bermaslik, tabiatning barcha unsurlarini asrab avaylash tushunchasi shakllanadi. Chunki diniy tarbiya va bilim tarbiyaning boshqa shakllariga ko'ra insonga juda tez ta'sir ko'rsatadi.

Oiladagi ta'lim-tarbiya farzandlarning ekologik madaniyatini boshlang'ich bosqichini mustahkamlab beradi. Agar farzand boshlang'ich bosqichda yetarli bilim va tarbiya ko'nikmalariga ega bo'lmasa, keyingi bosqichlarda ham normal ekologik madaniyatga ega bo'lolmaydi. Umume'tirof etilgan ekologik ta'lim-tarbiyani ololmaydi va ekologik madaniyatdan ortda qoladi. Ular shunchaki eshitadilar ammo amal qilmaydigan loqayd insonlarga aylanadi. Inson bolaligidan ekologik tarbiyani olib, ilmlarni mukammal egallab, amaliyotda bajarib kelganda, ekologik madaniyat uning vujudiga singib ketadi. Xalqaro umume'tirof etilgan ta'lim va tarbiyaning nazariy metodologik asosini aniq anglab yetadi. Shunga ko'ra, Ekologik ta'lim va tarbiyaning nazariy-metodologik asosi umume'tirof etilgan quyidagi besh qoidaga asoslanadi: birinchisi – olam moddiy elementlari o'zaro ta'sirlarning murakkab tizimini, biosfera ekologik muvozanatini aks ettiradi, uning qismlaridagi o'zgarishlar bir-biriga bog'liq; ikkinchisi – tabiatni muhofaza qilish madaniyati moddiy olamda mavjud munosabatlar va o'zaro bog'liq harakatlar qonunini ekologik faoliyatga tadbiq etishni taqozo qiladi; uchinchisi – inson va jamiyat tabiat tadrijiy rivojining qonuniy natijasi bo'lib, tabiatdan ajralmasdir ("tabiat-jamiyat-shaxs" o'zaro birligi ziddiyatli bo'lib, bir butunlikni tashkil etadi); to'rtinchisi – biosfera ekologik nomutanosibliigi inson va jamiyat tarixiy taraqqiyotida vujudga kelgan o'zgarishlar texnika taraqqiyoti bilan emas, balki, jamiyat va tabiat o'zaro ta'sirini boshqarishda subyektiv omilning madaniyatsizligi bilan bog'liq; beshinchisi - tabiat ijtimoiy munosabatlar xarakteriga, ekologik vaziyatlarning xususiyatlariga ta'sir ko'rsatadi. Shu metodologik tamoyillardan kelib chiqqan holda, ekologik ta'lim va tarbiya, uning tarixida shakllangan merosiga vorislik asosida jamiyat oldida turgan ekologik muammolarni hal etishga yordam beruvchi yangi va ilmiy asoslangan bilimlarni berishi mumkin [6].

Xulosa va takliflar. Umumlashtirib, shuni ta'kidlash kerakki, yoshlarni ekologik ta'lim va tarbiyaga aniq yo'naltirishni avvalo oilada amalga oshirish zamonaviylikning muhim mezonidir. Chunki, insonning ekologik madaniyatini shakllanishi va rivojlanishi uning oilasida olgan ta'lim va tarbiyasiga bog'liq. Ekologik globallashtirish tendensiyalarining tobora jadallashib borayotgani oilada amalga oshiriladigan ekologik tarbiyani modernizatsiya

qilishni, bu boradagi muammolarni bartaraf etishning yangi mexanizmlarini vujudga keltirishni taqozo qilmoqda. Fikrimizcha, oilada ekologik tarbiya samaradorligini oshirish, uning zamonaviy tizimini yaratish uchun quyidagi vazifalarga diqqatni jamlash maqsadga muvofiq bo'ladi:

- a) ekologik tarbiyaning uzluksizligini ta'minlash zaruriyati;
- b) ekologik tarbiya shakllari uyg'unligini ta'minlash zaruriyati;
- v) ekologik tarbiya vositalaridan foydalanish samaradorligini oshirish zaruriyati.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2016. 176 b.
2. Омонов Б.Н. Значение религиозных ценностей в формировании культуры личной экологии. Proceedings of Global Technovation 4th International Multidisciplinary Scientific Conference Hosted from Paris, France February 27th 2021. <https://conferencepublication.com>
3. Qilichev F. Shaxs ekologik madaniyatini shakllantirishda diniy qadriyatlarning roli. Fals.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent: O'zMU, 2022.
4. Tilavov O'G'. Global barqaror taraqqiyotda ekologik partiyalarning roli (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Fals.f.d. (DSc) diss. avtoref. – Toshkent: O'zMU, 2021.
5. Omonov B.N. Problems And Consequences Of Water Deficiency In Central Asia // Turkish Online Of Qualitative Inquiry (TOJQI) Volume 12, July 2021: 2541-2545. <https://www.tojq.net/index.php/journal/article/view/4680>
6. Omonov B.N., Ochilova G.A., Nomozov Kh.Sh., Manzarov Yu.Kh., Ochilov B.A. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System. <https://www.pnrjournal.com/index.php/home/article/view/2880/2583>
<https://www.scopus.com/sourceid/21100216519984-989>
7. Мамашакиров С. Роль социально-политических факторов в формировании экологической активности и ответственности: Автореф. дисс. на соиск. уч. степ. д. филос. н. – Т.: ТашГУ, 1997.
8. Muhiddin Rahim. Global ekologik inqiroz tahdidlari//Tafakkur jurnali. 2014/1. –B.24-35.
9. Omonov B. Ekologik globallashuv va uning O'zbekistondagi ekologik muhitga ta'siri. –T.: "Vorisi – nashriyot", 2021. 136 b.
10. Omonov B. The use of water resources in the center of environmental policy in the region. The fifth international conference on history and political sciences. <https://elibrary.ru/tjvied>
11. Omonov, Bahodir Nurillayevich. "MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA MINTAQAVIY INTEGRATSIYA–MUAMMOLAR YECHIMINING ASOSIY OMILI." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 4.21 (2024): 529-535.

12. Nurillayevich, O. B. "ЭКОЛОГИК ГЛОБАЛЛАШУВ КОНТЕКСТИДА ЎЗБЕКИСТОНДАГИ ЭКОЛОГИК ВАЗИЯТДАГИ ЎЗГАРИШЛАР." *PHILOSOPHY AND LIFE INTERNATIONAL JOURNAL*, (SI-1) (2022).
13. Омонов, Баходир Нуриллаевич. "Идейно-политический путь просветительского и джадидского движения." *Gospodarka i Innowacje* 44 (2024): 235-242.
14. Omonov, B. N. "O 'zbekiston ekologik siyosatining strategik asoslari." *Философия и право* 28.2 (2024): 41-43.
15. Omonov, Bahodir. "EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK TARBIYANING O 'RNI." *Modern Science and Research* 4.3 (2025): 125-128.
16. Omonov, B. N. (2024). MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA MINTAQAVIY INTEGRATSIYA–MUAMMOLAR YECHIMINING ASOSIY OMILI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(21), 529-535.
17. Nurillayevich, O. B. (2022). ЭКОЛОГИК ГЛОБАЛЛАШУВ КОНТЕКСТИДА ЎЗБЕКИСТОНДАГИ ЭКОЛОГИК ВАЗИЯТДАГИ ЎЗГАРИШЛАР. *PHILOSOPHY AND LIFE INTERNATIONAL JOURNAL*, (SI-1).
18. Омонов, Б. Н. (2024). Идейно-политический путь просветительского и джадидского движения. *Gospodarka i Innowacje*, 44, 235-242.
19. Omonov, B. N. (2024). O 'zbekiston ekologik siyosatining strategik asoslari. *Философия и право*, 28(2), 41-43.
20. Omonov, B. (2025). EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK TARBIYANING O 'RNI. *Modern Science and Research*, 4(3), 125-128.
21. Nomozov, Xurshid. "JAMIYATDA INTERNET-MAKON RESURLARIDAN FOYDALANISH SOHALARI." *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS* 1.2 (2024): 113-118.
22. O'G'Li, Nomozov Xurshid Shavkat. "YUKSAK AXBOROT MADANIYATI–INTERNET-MAKON RESURLARIDAN RATSIONAL FOYDALANISH SHARTI." *Research Focus* 2.6 (2023): 105-110.
23. Nomozov, Xurshid. "THREATS TO INFORMATION SECURITY IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS." *Gospodarka i Innowacje* 22 (2022): 229-231.
24. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "JAMIYATDA INTERNET-MAKON KONTENTLARI TA'SIRIDA SODIR BO 'LAYOTGAN NEGATIV
25. IJTIMOIYLASHUV SHAKLLARI." *TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G 'OYALAR* 1.2 (2024): 52-58.
26. Nomozov, Xurshid. "JAMIYAT IJTIMOIYLASHUVIDA INSTITUTLARI O'RNI VA INTERNET-MAKONNING UNDAGI O 'RNI." *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION* 1.2 (2024): 83-88.
27. Nomozov Xurshid Shavkat o'g'li. "YOSHLARNING IJTIMOIYLASHUVIDA INTERNET TARMOQLARINING O'RNI." *Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari* 5.2 (2025): 27-31.

28. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "JAMIYATDA INTERNET-MAKON KONTENTLARI TA'SIRIDA SODIR BO 'LAYOTGAN NEGATIV IJTIMOYILASHUV SHAKLLARI." *TANQIDIY NAZAR, TAHLILiy TAFAKKUR VA INNOVATION G 'OYALAR* 1.2 (2024): 52-58.
29. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "INTERNET-MAKON MOHIYATI, GENEZISI VA ZAMONAVIY TARKIBI." *TANQIDIY NAZAR, TAHLILiy TAFAKKUR VA INNOVATION G 'OYALAR* 1.2 (2024): 48-51.
30. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "AXBOROT XURUJINING O 'SMIRLAR HAYOTIGA TA'SIRI." *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI* (2023): 1285-1287.
31. Nomozov, Xurshid. "JAMIYATDA INTERNET-MAKON RESURSLARIDAN FOYDALANISH SOHALARI." *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS* 1.2 (2024): 113-118.
32. Nomozov, Xurshid. "THREATS TO INFORMATION SECURITY IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS." *Gospodarka i Innowacje* 22 (2022): 229-231.
33. Xurshid, Abdullayev. "GLOBAL MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO 'LLARI." *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi* 19.1 (2025): 299-303.